

**PSIXOLOGIYADA BOLALAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH  
MASALALARI**

*To'raboyeva Ozodaxon Baxtiyorjon qizi*  
*Andijon viloyati Andijon tumani 47-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirish uchun bir qancha o'yin va tavsiyalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ertak, didaktik o'yinlar, rasm chizish, bo'yash, pazl yasash, origami

**KIRISH**

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, oliyjanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo'lish, odobaxloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so'zamollik, xushso'zlik, ilmi bo'lish kabi xislatlar bilan boyitish inson kamolotining me'yori bo'lib kelgan. Chunki komil insonning ma'naviyati yuksak bo'ladi Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishi esa o'z xalqining tarixi, urf-odati, qadriyati hamda an'analari, madaniyatini chuqur biladi va unga rioya qiladi. Maktabgacha davr bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davridir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatleri va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotlaridagi asosiy vazifalardan biri – bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur ettirish. Masalan, rasm chizish, turli o'yinlar, kubiklardan biron-bir narsa yasash orqali bola ana shu axborotni tafakkurida rivojlantiradi.

Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asos bo'lib, so'z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagi maktab darslarini a'lo darajada o'zlashtirishda ko'maklashadi. Bolalar o'z tabiatlariga ko'ra haddan tashqari qiziquvchan bo'ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur: ta'mini tatib ko'rishi, ushlab ko'rishi, tushunarsiz va yangi bo'lgan narsalarga o'z tushuntirishlarini o'ylab topishi, tajriba o'tkazib ko'rishi va o'z farazlarini tekshirishi. Har bir ota-ona o'z farzandiga uni o'rab turgan olamni tanishiga yordam berishi zarur. Bola 3 yoshigacha asosan predmet va harakatlarning nomlarini o'zlashtiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatib, bu predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlari ishlatilishini vazifalariga bog'lagan holda tez o'zlashtiradi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning analizatorli idrok etish jarayoni ham yanada takomillasha boradi. Bola hayotining 3-yoshida beixtiyor idrok maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada ma'lum bir maqsadga qaratilgan, tanlangan

idrokka aylanadi, kuzatuvchanlik tarkib topadi. Idrok etishda soʻzning roli osha boradi, endi bola narsalarning belgilab qoʻygan sifatleri va xususiyatlarini aytib koʻrsatadi. Idrok jarayoni bolaning tafakkurini oʻstiradi hamda oʻz faoliyati davomida va tafakkur jarayonida tobora takomillashadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tasavvurlari doirasi kengayishi va bilimning oshishi uning aqliy faoliyatining xarakterini oʻzgartiradi. Nutqning oʻsish faoliyatining kengayishi yangi tafakkur shakllari uchun sharoit yaratadi.

5–6 yashar bola tasvirleydi, keyin esa muhokama qiladi, umumlashtiradi. Shu yoshdagi bolaning tafakkuri aniq obrazli emotsional va yaqqol tafakkur hisoblanadi. Muhokama bevosita narsa, buyum bilan bogʻlangan. Bola umumlashtirilgan tushunchalarni oʻzlashtiradi, fikr yuritish operatsiyalari faqat idrok etishgagina emas, balki xayolga ham asoslanadi. Dastlabki (garchi mukammal boʻlmasa ham) hukmlardan xulosa chiqarish va yakun yasash paydo boʻladi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va uning oldiga qoʻyilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Bogʻcha yoshidagi bolalar oʻzlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega boʻlgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor esida saqlab qoladi. Ushbu yoshdagi bolalar tafakkuri va uning oʻsishi oʻziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha yoshda bolaning tafakkuri juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, ularda turmush tajribasining nisbatan koʻpayishi, ikkinchidan, nutqning yaxshi oʻsgan boʻlishi, uchinchidan esa bogʻcha yoshidagi bolalarning juda koʻp erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega boʻlishlaridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda har sohaga doir savollarning tugʻilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola oʻz savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasa, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi. Bolaga taʼlimni erta, kech ham emas, balki oʻz vaqtida berish lozim. Bolaning yoshiga muvofiq ravishda shunday taʼlim berish kerakki, bunda uning barcha hissiyot aʼzolari jalb etilgan boʻlsin. Yaʼni bola rivojlanish jarayonida mustaqil ravishda oʻzi teginish, koʻrish, eshitish, hidlash va mazasini bilish imkoniyatiga ega boʻlishini taʼminlash zarur. Bolaga kichikligidan axloqni oʻrgatish miya rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Kattalarni hurmat qilish, salom berish, yoʻl harakati qoidalariga amal qilish va boshqa shu kabilarni oʻrganib borgan bola hayoti davomida qiynalmaydi va kam xato qiladi.

Bilim olish bolaga yaxshi kayfiyat baxsh etishi kerak. Bolani qiynab, oʻqish yoki yozishga barvaqt oʻrgatib, oʻyindan xoli qilish uning stress olishiga olib keladi. Natijada bolada har xil kasalliklar yuzaga kelishi mumkin. Bola bilimni oʻz xohishi bilan oʻzlashtirishi kerak.

Agar istamayotgan boʻlsa, demak, ota-ona uni qiziqtirish yoʻllarini topa olmayapti. Shuning uchun ota-onalar bolaning rivojlanishi uchun aynan uning kichikligidan sharoit yaratib, atrof-muhitni yanada qiziqarli qilib koʻrsatishlari kerak.

Bola chizish, o‘qish, yasash, o‘ynash, qurish, yozish va boshqa faoliyatlarning barchasi farzand uchun qiziqarli bo‘lishi ota-onaga bog‘liq. Bola kichikligidan qanchalik qiziquvchan, savollari ko‘p bo‘lsa, shunchalik rivojlanib o‘sadi. Bolaning rivojlanishida maktabgacha bo‘lgan davri juda muhim o‘rin tutadi. Bu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, psixologik salomatligi shakllanadi va aqliy rivojlanish qobiliyatlari takomillashadi. Bolani kelajakda omadli, aqlli hamda iste’dodli bo‘lishini istagan ota-ona uning rivojlanishiga aynan shu davrdan boshlab ahamiyat bermog‘i lozim.

Bolaning ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi yo‘llarni amalga oshirish mumkin: Kitob o‘qish. Bola bilan birga kitob rasmlarini tahlil qilib o‘qish, undagi ertakning mazmunini bolaga o‘yin tarzida qayta so‘zlatish, o‘yinchoqlariga kitob mazmunini aytirish juda foydali va qiziqarli mashg‘ulot sanaladi. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o‘xshatishga harakat qiladi, u o‘zi ertak yoki hikoyalarni mustaqil to‘qiy olishi ham mumkin. Chizish (bo‘yoq, un, qum bilan). Bolalar odatda chizishni juda yaxshi ko‘rishadi. Lekin uddalay olishmasa, xafa bo‘lib chizmay qo‘yishi ham mumkin. Bolaga qalamning o‘rniga qo‘llarida chizishni (faqat maxsus bo‘yoqlar bilan) taklif qilib ko‘ring. Bo‘yoqqa qo‘llarini botirib, istagan narsani chizayotgan bola juda zavqlanadi (hamma yoq bo‘yoq bo‘lib ketishini inobatga oling). Yoki chala chizish mashg‘ulotini qo‘llang. Bunda siz bolaga biron-bir narsani oxiriga yetkazmasdan chizib berasiz. Bola esa o‘zi uni tugatib qo‘yishi kerak. Masalan, siz aylana chizib, boladan uni tugatib qo‘yishini so‘rang. Shunda bola aylanadan nima chizish mumkinligi haqida fikr yuritadi. Bola rasm solar ekan, rasmni so‘zlar bilan to‘ldirib, faollik bilan harakat qiladi, u o‘z tasavvurlari asosida keyinchalik katta yoshdagi odamlarning so‘ziga binoan rasmlar yaratishi mumkin, unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastilindan shakllar yasaydi. Natijada, bola analizatorlarini rivojlantirishda moslashgan va differensiyallashgan harakatning tarkib topishidan tashqari, boradi. Chizishni un va qumda ham amalga oshirish mumkin.

Grafik diktant. Bunda tarbiyachi bolalarga geometrik shakllar, narsa-buyumlarni aytib turadi. Bolalar chizadi. Masalan, uchburchak, qush va boshqalar. 3–4 yashar bola narsalar o‘rtasidagi bog‘lanishni farqlab oladi va o‘z faoliyatini rejalashtiradi. Bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi.

Bo‘yash. Ayrim bolalar yaxshi chiza olmaydi, ammo chizishni xohlaydi. Bunday bolalarga tayyor rasmlarni bo‘yash vazifasini topshirish mumkin. Ular rasmlarni bo‘yar ekan, ertak qahramonlari bilan tanishadi. Ularning kiyimlari, qiyofalari, atrof-muhiti haqidagi tasavvurlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, qo‘l harakati motorikasi, ijodiy tafakkuri ham rivojlanadi.

Pazl. Pazl yasash bola xotirasini rivojlantiruvchi juda foydali mashg‘ulot. Bola yaxshi ko‘rgan rasmlardan unga pazl olib bering yoki o‘zingiz yasab bering. Bolalar dominosi. Ertaklar qahramoni aks ettirilgan dominolarni bolangiz bilan birga o‘ynab,

ba'zida unga yutqazib tursangiz, bola juda zavq bilan o'ynaydi. O'yin davomida esa u aqlan rivojlanadi. Bolalar dominosini o'zingiz ham yasasangiz bo'ladi.

Origami (yaponcha, "qog'ozni yig'ish"). Yaponlarning qalbini aks ettiruvchi, to'rtburchak qog'ozdan shakllar yasash san'atidir. Origami nafaqat Yaponiyada, balki butun dunyoda odamlarning sevimli hordiq chiqarish mashg'ulotlariga aylangan. Origami san'atini o'rgatish bolalarda tasavvur qilish, fikrlash qobiliyati va barmoqlar motorikasini rivojlantirishga yordam beradi. Kusudami (yaponcha, "dori", "shar"). Yaponlarning qog'ozdan yumaloq shakllar yasash san'ati.

O'yin. Bola o'yin jarayonida amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. Bunda u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi hamda jarayonda o'z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradi. O'yinlarni turli predmetlar orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, qisqich va sanoq cho'plari bilan mashqlar; dastro'mol, ip kalavasi, qog'oz bilan mashq; "Sehrli xaltacha"; oyoq kiyimlarning ipini o'tkazish; mozaika, konstruktorlar; skrepkalar; tish kavlagichlar, gugurt donalari bilan o'ynash.

Eng asosiysi, bolani o'yin tarzida rivojlantirish kerak. Dars qilgandek, uni majburlab rivojlantirish ijobiy natijaga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola har tomonlama rivojlana olsa, keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
2. А.Х.Югай, Н.А.Мираширова "Общая психология" – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. "Психология". Учебник. "Питер", 2003.
4. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
5. F.I.Xaydarov ,N.I.Xalilova Umumiy psixologiya .Toshkent – 2010